

## BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARIDA BELGILANGAN BA'ZI

## YO'NALISHLARNING O'ZBEKISTON UCHUN AHAMIYATI

**Maqola nomi:** Barqaror rivojlanish maqsadlarida belgilangan ba'zi yo'nalishlarning  
O'zbekiston uchun ahamiyati

**Muallif:** Islomov Shohjahon Sherzod o'g'li (Toshkent davlat yuridik universiteti  
magistri)

Email: [Islomov.muhammadshohjahon@gmail.com](mailto:Islomov.muhammadshohjahon@gmail.com)

Tel: +99890-488-13-42

### Annotatsiya

Ushbu maqola, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) doirasida O'zbekistonning milliy dasturlarini amalga oshirish jarayonlarini tahlil qiladi. 2023-2025 yillar davomida to'plangan ma'lumotlar asosida, O'zbekistonda BRMlarni mahalliylashtirish bo'yicha sezilarli yutuqlarga erishilgan bo'lsa-da, bir qator muammolar mavjudligi aniqlandi. Maqolada O'zbekistonda BRMlarning ijtimoiy-iqtisodiy ta'siri, institutsional mexanizmlar samaradorligi va kelajak istiqbollari o'r ganiladi. Shuningdek, BRM ko'rsatkichlarini monitoring qilish tizimini takomillashtirish, ko'p tomonlama hamkorlik mexanizmlarini kuchaytirish hamda innovatsion moliyalashtirish usullarini joriy etish bo'yicha tavsiyalar taqdim etiladi.

### Abstract

This article analyzes the implementation processes of Uzbekistan's national programs within the framework of the United Nations Sustainable Development Goals (SDGs). Based on data collected during 2023-2025, it was determined that despite significant achievements in localizing SDGs in Uzbekistan, a number of challenges remain. The article examines the socio-economic impact of SDGs in Uzbekistan, the

effectiveness of institutional mechanisms, and future prospects. Additionally, recommendations are provided for improving the SDG indicator monitoring system, strengthening multilateral cooperation mechanisms, and implementing innovative financing methods.

## Аннотация

В данной статье анализируются процессы реализации национальных программ Узбекистана в рамках Целей устойчивого развития (ЦУР) Организации Объединенных Наций. На основе данных, собранных в течение 2023-2025 годов, установлено, что, несмотря на значительные достижения в локализации ЦУР в Узбекистане, сохраняется ряд проблем. В статье исследуется социально-экономическое влияние ЦУР в Узбекистане, эффективность институциональных механизмов и перспективы на будущее. Кроме того, представлены рекомендации по совершенствованию системы мониторинга показателей ЦУР, укреплению механизмов многостороннего сотрудничества и внедрению инновационных методов финансирования.

**Kalit so‘zlar:** Barqaror rivojlanish maqsadlari, O‘zbekiston, milliy strategiyalar, institutsional mexanizmlar, taraqqiyot ko‘rsatkichlari.

## 1. Kirish

Barqaror rivojlanish konsepsiysi, zamonaviy jahon taraqqiyotining eng muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida tan olingan. 2015-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan “2030-yilgacha bo‘lgan davr uchun Barqaror rivojlanish sohasidagi kun tartibi” hujjati doirasida 17 ta Barqaror rivojlanish maqsadi (BRM) va 169 ta vazifa belgilangan. Bu global kun tartibi barqaror rivojlanishning uchta o‘zaro bog‘liq jihatini -- iqtisodiy o‘sish, ijtimoiy inklyuzivlik va ekologik barqarorlikni muvozanatli ravishda rivojlantirishni nazarda tutadi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti ta'kidlaganidek, "Barqaror rivojlanish maqsadlarining 2030-yilgacha bo'lgan kun tartibi - barcha davlatlar uchun tinchlik va farovonlikni ta'minlashga qaratilgan global chaqiriqdir"<sup>1</sup>

O'zbekiston 2030-yilgacha bo'lgan Barqaror rivojlanish dasturini qabul qilgan davlatlar qatoriga kiradi va milliy darajada BRMlarni amalga oshirish bo'yicha institutsional mexanizmlarni shakllantirgan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"<sup>2</sup>gi qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining "Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2022-yil 14-dekabrdagi "Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni jadallashtirishda parlamentlar rolini kuchaytirish to'g'risida"<sup>3</sup>gi rezolyutsiyasini amalga oshirish choralari haqidagi qo'shma qarorining samarali amalga oshirilishi institutsional mexanizmlar va huquqiy asoslarni yanada takomillashtirish zaruriyatini ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, "O'zbekiston – 2030"<sup>4</sup> strategiyasi va boshqa milliy dasturlar BRMlar bilan uyg'unlashtirilgan.

Ushbu maqolaning maqsadi, O'zbekistonda BRMlarni amalga oshirish jarayonlarini chuqur tahlil qilish, erishilgan yutuqlar va mavjud muammolarni aniqlash hamda BRMlarni samarali amalga oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot doirasida O'zbekistonda BRMlarning institutsional asoslari, milliy rivojlanish strategiyalari bilan integratsiyasi, monitoring mexanizmlari va moliyalashtirish jihatlari o'rganiladi.

<sup>1</sup> Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development, // 2015 year. // Retrieved from: [https://www.un.org/en/development/desa/population/migration/generalassembly/docs/globalcompact/A\\_RES\\_70\\_1\\_E.pdf](https://www.un.org/en/development/desa/population/migration/generalassembly/docs/globalcompact/A_RES_70_1_E.pdf)

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 21.02.2022 yildagi "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 83-son qarori// Retrieved from: <https://lex.uz/docs/-5870397>

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 06.11.2023 yildagi "Barqaror rivojlanish maqsadlari oyligini o'tkazish to'g'risida"gi 3671-IV-son qo'shma qarori// <https://www.lex.uz/uz/docs/-6666929>

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni// Retrieved from: <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>

## 2. Metodologiya

Ushbu tadqiqotda, O‘zbekistonda BRMlarni amalga oshirish jarayonlarini tahlil qilish uchun ham sifat, ham miqdoriy tahlil usullari qo‘llanildi. Asosiy ma’lumotlar manbalarini rasmiy hujjatlar, milliy hisobotlar, xalqaro tashkilotlar ma’lumotlari, ilmiy tadqiqotlar natijalari tashkil etdi.

Tadqiqotda quyidagi usullar qo‘llanildi: BRMlar bo‘yicha O‘zbekiston tomonidan taqdim etilgan milliy hisobotlar kontent tahlili, O‘zbekistonda BRMlarni amalga oshirish bo‘yicha qabul qilingan milliy strategiya va dasturlarni o‘rganish orqali emperik tahlil, BRMlar ko‘rsatkichlarini monitoring qilish tizimini tahlili, O‘zbekistonda BRMlarni moliyalashtirish manbalarini o‘rganildi.

Tadqiqot doirasida, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi (BMTTD), Jahon banki va O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi tomonidan 2023-2025 yillar davomida to‘plangan ma’lumotlar tahlil qilindi.

## 3. Adabiyotlar sharhi

Barqaror rivojlanish maqsadlarining mohiyati va nazariy asoslari: Barqaror rivojlanish kontseptsiyasi dunyoda global muammolarning keskinlashuvi bilan bog‘liq ravishda rivojlandi. “Barqaror rivojlanish konsepsiysi 1992 yilda Rio-de-Janeyroda o‘tkazilgan atrof-muhit va rivojlanish bo‘yicha BMT Konferensiyasida ma’qullangan. Unda sayyora ifloslanishi, resurslar qisqarishi muammosini hal qilish, bir so‘z bilan aytganda, kelgusi avlodlar uchun sayyoraning ekologik salohiyatini tiklash ko‘zda tutilgan”<sup>5</sup>.

Barqaror rivojlanish g‘oyasining nazariy-amaliy ahamiyati haqida gapirganda, bu konseptsiya global muammolarni o‘rganish va o‘rgatishning samaradorligini oshirishda muhim metodologik ahamiyatga ega ekanligi ta’kidlanadi.

O‘zbekistonda davlat boshqaruvida ahamiyati ortib bordi hamda barqaror rivojlanish maqsadlarining **milliy qonunchilikka implementatsiyasi** amalga oshirildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT tomonidan

<sup>5</sup> Тангиров, Н. А. (2022). "Барқарор ривожланиш" ғоясининг назарий-амалий аҳамияти. Academic Research in Educational Sciences, 3(6), p-p 1082-1092 //Academic Research in Educational Sciences // ISSN: 2181-1385

qabul qilingan ushbu muhum hujjat yuzasidan quyidagi fikrni bildirganlar: Avvalambor, barqaror rivojlanish tamoyillari, barqaror rivojlanish huquqi va BRMlarning yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida aks ettirilishi xalqaro hamjamiyat, xususan BMT tomonidan yuksak baholandi”<sup>6</sup>. O‘zbekiston Respublikasi barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish bo‘yicha strategik hujjatlarni qabul qildi va milliy dasturlarni ishlab chiqdi.

Barqaror rivojlanish va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni<sup>7</sup> siyosiyiy fanlar doktori professor A.G.Mo‘minov “O‘zbekiston barqaror rivojlanish yo‘lida” maqolasida milliy taraqqiyot va BRMlar orasidagi aloqadorlikni bayon qiladi: “Bugungi kunda O‘zbekiston o‘zining demokratiya prinsiplariga asoslangan erkin fuqarolik jamiyati qurish pozitsiyasini mustahkam belgilab olgan. “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” milliy taraqqiyot rivojida yangi bosqich hisoblanib, unda xalqning farovon hayot, barqaror rivojlanish bilan bog‘liq maqsadlari ifodalangan”<sup>8</sup>.

BRMlar va inson huquqlari o‘rtasidagi bog‘liqlik mavjud bo‘lib bu haqida Barqaror rivojlanish markazi rahbari M.Usmonov “Kun tartibi – 2030” o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, u Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt kabi inson huquqlari bo‘yicha asosiy xalqaro shartnamalarning asosi hamda kvintessensiyasi hisoblanadi”<sup>9</sup> deb ta’kidlaydi.

O‘zbekistonda barqaror rivojlanish maqsadlarini institutsiyal ta‘minlash yuzasidan huquqiy asoslar yaratilgan hamda qonunchilik hujjatlari qabul qilingan. Masalan, 2018-yilda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Barqaror rivojlanish maqsadlarini milliy darajada monitoring va muvofiqlashtirish bo‘yicha

<sup>6</sup> Mirziyoyev Sh.M. “Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston”. – Toshkent.: “O‘zbekiston” NMIU, 2024.-344-B

<sup>7</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. Retrieved from: <https://lex.uz/docs/-5841063>

<sup>8</sup> Мўминов, А. Г. (2023). Ўзбекистон барқарор ривожланиш ўйлида. Фалсафа ва хукуқ, 2023(2), 14-19.

<sup>9</sup> Усмонов, М. Ш. (2023). Барқарор ривожланиш мақсадлари ва инсон хуқуқларини таъминлаш. Фалсафа ва хукуқ, 2023(3), 4-6.

“Koordinatsion kengash” tashkil etilgan. Kengash tarkibiga vazirliklar, davlat qo‘mitalari, Oliy Majlis palatalarining vakillari, nodavlat va xalqaro tashkilotlar vakillari kiritilgan. Barqaror rivojlanish maqsadlarini monitoring qilish masalasida ham institutsional mexanizmlar yaratilgan.

Adabiyotlar tahlili, O‘zbekistonda BRMlarni mahalliylashtirish, institutsional mexanizmlarni yaratish va milliy strategiyalar bilan integratsiyalash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar olib borilayotganini ko‘rsatadi. Biroq, BRMlarga erishish uchun qo‘shimcha mablag‘lar va kuchlarni safarbar qilish zarurligi ta’kidlanmoqda. O‘zbekiston sharoitida BRMlarni monitoring qilish tizimini tahlil qilib, “milliy statistika tizimini takomillashtirish, ma’lumotlar sifatini oshirish va xalqaro standartlarga moslashtirish zarurligini ko‘rshimiz mumkin.

Jahon banki o‘zining “O‘zbekiston iqtisodiy sharhi” hisobotida “O‘zbekistonda barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda institutsional salohiyatni kuchaytirish va moliyaviy resurslarni safarbar qilishning muhimligi”<sup>10</sup>ni ta’kidlaydi.

Akademik adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda BRMlarni amalga oshirish jarayonlari ko‘p qirrali yondashuvni talab etadi. Bunda institutsional mexanizmlarni takomillashtirish, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, monitoring tizimini rivojlantirish va manfaatdor tomonlar o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish alohida ahamiyat kasb etadi.

**Barqaror rivojlanish maqsadlarining asosiy g‘oyasi.** Hozirgi kunda global muammolar tizimini o‘rganish hamda samaradorligini oshirishda barqaror rivojlanish nazariyalarni chuqur tadqiq etish ahamiyatli hisoblanmoqda. Barqaror rivojlanish maqsadlarining xalqaro miqyosda qabul qilinishi “Barqaror rivojlanish maqsadlari va inson huquqlarini ta’minalash» maqolasida bu voqeani shunday tavsiflaydi: 2015 yilda BMT butunjahon sammitida 2030 yilgacha bo‘lgan barqaror rivojlanish Kun tartibi<sup>11</sup>,

<sup>10</sup>“O‘zbekiston iqtisodiy sharhi”. Jahon banki. Retrieved from: <https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan/overview>

<sup>11</sup> Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development, 2015 year. // Retrieved from: [https://www.un.org/en/development/desa/population/migration/generalassembly/docs/globalcompact/A\\_RES\\_70\\_1\\_E.pdf](https://www.un.org/en/development/desa/population/migration/generalassembly/docs/globalcompact/A_RES_70_1_E.pdf)

uning 17 ta o‘zaro bog‘liq, bir-birini mustahkamlovchi va to‘ldiruvchi Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) va ularga erishish borasidagi 169 ta vazifa tasdiqlandi.

“Kun tartibi, bu – odamzod, sayyora va farovonlik yo‘lidagi harakat rejasi bo‘lib, yanada erkinroq sharoitlarda umumbasharly tinchlikni mustahkamlash, barqaror tinchlik va taraqqiyotni ta’minalash, o‘zaro bog‘liq va global lashayotgan dunyoda mavjud yoki ehtimoliy yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etish uchun birgalikda faol choralar ko‘rish g‘oyalariga asoslangan”<sup>12</sup>.

**Barqaror rivojlanish maqsadlarini moliyalashtirish masalalariga to‘xtaladigan bo‘lsak:** O‘zbekistonda barqaror rivojlanish maqsadlarini moliyalashtirish manbalari bo‘yicha statistik ma’lumotlar tahlil qilingan: “2017-2022 yillar davomida davlat byudjetidan ijtimoiy sohalarga ajratilgan mablag‘lar miqdori ikki barobarga oshdi. Xususan, ta’lim sohasiga YalMning **6 foizi**, sog‘liqni saqlash sohasiga 4.5 foizi yo‘naltirilmoqda”<sup>13</sup>. Bundan tashqari Xalqaro grant dasturlarida ham BRM talablariga rioya qilinganlikk usuvorlik ahamiyat kasb etmoqda. Bunda biz aynan BRMga doir masalalarda ham davlat byudjetini ajratishda asosiy ustuvorlikka ahamiyat berilayotganini ko‘rshimiz mumkin.

BRMlarning milliy ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish va monitoring qilish vazifasi O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasiga yuklatilgan. 2019-yilda O‘zbekiston 206 ta milliy ko‘rsatkichni tasdiqlagan, ulardan 127 tasi global ko‘rsatkichlarga to‘liq mos keladi, 79 tasi esa milliy kontekstga moslashtirilgan. Yuqoridagilarga ko‘ra, O‘zbekistonda barqaror rivojlanish maqsadlari global jarayonlar bilan chambarchas bog‘liq holda, milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda amalga oshirilmoqda.

**Ekologik barqarorlik va barqaror rivojlanish maqsadlari:** Barqaror rivojlanish kontseptsiyasining muhim tarkibiy qismi – ekologik barqarorlikdir. Shunga ko‘ra, O‘zbekiston 2018-yilda Parij bitimini ratifikatsiya qildi va 2030-yilgacha

<sup>12</sup> Усмонов, М. Ш. (2023). Барқарор ривожланиш мақсадлари ва инсон хуқуқларини таъминлаш. Фалсафа ва хукуқ, 2023(3), 4-6 р-р.

<sup>13</sup> O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. (2022). 2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjeti ijrosi to‘g‘risida hisobot. Retrieved from: <https://www.imv.uz/static/choraklik-2022>

issiqxona gazlari chiqindilarini 10 foizga kamaytirish majburiyatini oldi. 2021-yilda “Yashil iqtisodiyotga o‘tish” strategiyasi qabul qilindi, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo‘yicha qator loyihalar amalga oshirilmoqda.

### Sifatli ta’lim (BRM 4)

Ta’lim har qanday jamiyat taraqqiyotining asosi sanaladi. Shu bois, BMT tomonidan qabul qilingan Barqaror rivojlanish maqsadlarining (BRM) to‘qqizinchisi aynan sifatli ta’limga qaratilgan. “O‘zbekistonda ta’lim sohasida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. 2024-yilga kelib maktabgacha ta’lim qamrovi 75 foizga yetkazildi”<sup>14</sup>. 11 yillik majburiy o‘rta ta’lim tizimi joriy etildi. Oliy ta’limda kvota sonlari keskin oshirilib, xususiy oliy ta’lim muassasalari soni ko‘paytirildi. 2020-2024 yillar davomida oliy ta’lim qamrovi 25 foizdan 38 foizgacha oshdi.

Mamlakatda ta’lim sifati va raqamli ko‘nikmalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. “Raqamli avlod” dasturi doirasida o‘quvchilar zamonaviy kompyuter texnologiyalari bilan ta’mindagi va barcha maktablar yuqori tezlikdagi internet tarmog‘iga ulandi.

BRM-4: “Sifatli ta’lim” maqsadi har bir inson uchun inklyuziv, adolatli va sifatli ta’limni ta’minlash hamda butun umr davomida o‘qish imkoniyatini kengaytirishni nazarda tutadi.

Asosiy muammolar: Ko‘plab mamlakatlarda, jumladan, O‘zbekiston misolida ham, maktab va oliy ta’lim tizimida bilim berish sifati xalqaro standartlarga to‘liq javob bermasligi kuzatiladi. O‘quv dasturlarining zamonaviy mehnat bozori talablariga mos emasligi – muhim muammo hisoblanmoqda. Shuningdek, qishloq joylarda maktab binolarining jismoniy holati yomon, jihozlash darajasi past. Bu esa ta’lim oluvchilar o‘rtasida tengsizlikni kuchaytiradi. Yana bir muammolardan biri bu o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi va doimiy malaka oshirish tizimi yetarli darajada rivojlanmagan. Bu holat sifatli ta’lim berishga to‘sinqinlik qiladi.

<sup>14</sup>Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” 2024-yil 21-fevraldaggi PF-37-son Farmoni va u bilan tasdiqlangan Davlat dasturi bajarilishi yuzasidan TAHЛИY MA’LUMOT//Retrieved from: <https://uzedu.uz/uploads/downloads/TbkVqFRy9q6jh3sK9j9VFDljhkouo-M7.pdf>

Ushbu muammaolarni samarali hal qilish yuzasidan so‘nggi yillarda BRMlarini amalga oshirish doirasida quyidagi muhim ishlar amalga oshirildi:

**Ta’lim tizimini isloh qilish:** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 9.04.2019 yildagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni asosida Maktabgacha va maktab ta’lim vazirligi tomonidan milliy o‘quv dasturlarini yangilash, STEM yo‘nalishlarini keng joriy etish ishlari olib borilmoqda. Shuningdek, Elektron darsliklar, onlayn o‘quv platformalari (masalan, *Ziyonet.uz*) joriy qilindi. Bu raqamli ta’lim infratuzilmasining kengayishiga xizmat qilmoqda. BRM doirasida ayniqsa, qishloq hududlarida qiz bolalarning o‘rta va oliy ta’limga kirish imkoniyatlarini oshirish maqsadida maxsus grant dasturlari ishlab chiqilmoqda.

Ta’lim tizimi UNESCO, UNICEF, va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda rivojlantirilmoqda. Bu esa tajriba almashinushi va texnik yordam ko‘rsatishga xizmat qilmoqda. Sifatli ta’limga erishish yo‘lida sezilarli ishlar amalga oshirilayotgan bo‘lsa-da, mavjud muammolar hali-hanuz dolzarbligicha qolmoqda. BRM doirasidagi islohotlar samaradorligini oshirish uchun, bir tomonidan, milliy kontekstga mos strategiyalar ishlab chiqilishi, ikkinchi tomonidan esa ta’lim tizimining moliyaviy va tashkiliy jihatdan barqarorligini ta’minlash zarurli dolzARB hisoblanmoqda.

#### 5.4. Iqlim o‘zgarishi bilan kurashish (BRM 13)

O‘zbekiston 2018-yilda Parij bitimini ratifikatsiya qildi<sup>15</sup> va 2030-yilgacha issiqxona gazlari chiqindilarini 10 foizga kamaytirish majburiyatini oldi. 2021-yilda “Yashil iqtisodiyotga o‘tish”<sup>16</sup> strategiyasi qabul qilindi, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo‘yicha qator loyihalar amalga oshirilmoqda.

<sup>15</sup> O‘zbekiston Respublikasining 02.10.2018 yildagi “Parij bitimini (Parij, 2015-yil 12-dekabr) ratifikatsiya qilish to‘g‘risida”gi O‘RQ-491-son qonuni, Retrieved from: <https://lex.uz/docs/-3924460>

<sup>16</sup> O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish vazirligi, 2021. “2030-yilgacha Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi”. Retrieved from: <https://lex.uz/docs/-4539502>

2023-2024 yillarda O‘zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalari loyihalari faol amalga oshirildi: Navoiy viloyatida 100 MVt<sup>17</sup> quvvatga ega quyosh elektr stansiyasi ishga tushirildi Buxoro viloyatida 500 MVt<sup>18</sup> quvvatga ega shamol elektr stansiyasi qurilishi boshlandi Samarqand viloyatida 200 MVt quvvatga ega fotovoltaik stansiya<sup>19</sup> ishga tushirildi. Biroq, energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ulushini ko‘paytirish va iqlim o‘zgarishiga moslashtirish choralarini kuchaytirish bo‘yicha sezilarli harakatlar talab etiladi. 2024-yilga kelib, O‘zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalarining umumiy elektr energiyasi ishlab chiqarishdagi ulushi 10 foizga yetdi, bu 2030-yilgacha belgilangan 25 foizlik maqsaddan hali ancha past.

## Xulosa

Biz mazkur tahlillarimizda O‘zbekistonda Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM)ni amalga oshirish jarayonini ba’zi maqsadlari yuzasidan tahlil qildik. Unda BRMlarning milliy strategiyalar bilan integratsiyasi, institutsional mexanizmlar, moliyalashtirish va monitoring tizimlari kabi muhim jihatlar yoritilgan. Tahlillarimiz davomida quyidagi asosiy **yutuqlar** va **muammolar** aniqlangan:

Xususan BRMlarning milliy qonunchilik va strategiyalarga (masalan, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi) uyg‘unlashtirilishi, Parij bitimining ratifikatsiya qilinishi, ta’lim, energetika va ekologik barqarorlik sohalarida sezilarli islohotlar (masalan, quyosh va shamol elektr stansiyalari qurilishi, ta’lim qamrovining oshirilishi), xalqaro hamkorlikning kuchayishi (BMT, Jahon banki, UNESCO bilan loyihalar) asosiy yutuqlar hisoblanadi.

<sup>17</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 30.10.2020 yildagi “Navoiy viloyatida quvvati 100 MVt bo‘lgan fotoelektrik stansiyani qurish” investitsiya loyihasini amalga oshirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 667-son qarori. **Retrieved from:** <https://lex.uz/uz/docs/-5073453>

<sup>18</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.06.2023 yildagi “Buxoro viloyatining Qorovulbozor tumanida quvvati 500 MVt bo‘lgan quyosh fotoelektr stansiyasini qurish” investitsiya loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-190-son qarori// **Retrieved from:** <https://lex.uz/ru/docs/-6497389>

<sup>19</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.06.2023 yildagi “Buxoro viloyatining Qorovulbozor tumanida quvvati 500 MVt bo‘lgan quyosh fotoelektr stansiyasini qurish” investitsiya loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori, PQ-190-son

Ammo, hozirda monitoring tizimlarining zaifligi, moliyaviy resurslarning cheklanganligi va qo'shimcha investitsiyalarga bo'lgan ehtiyojning yuqoriligi, ta'lif, ekologiya kabi sohalarda amaliy natijalarining belgilangan maqsadlardan orqada qolishi ma'muriy islohotlar davrida aniq institutsionallashuvning qiyinlashuvi kabi muammolar aniqlangan.

Qonunchilikni rivojlantirish bo'yicha takliflar.

Biz yuqorida BRM bo'yicha muammolar mavjudligini aytdik. Ushbu muammolarni bartaraf qilish yuzasidan qonunchilikka quyidagi takliflarni bildirishimiz mumkin. BRM innovatsion moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish lozim deb hisoblaymiz. Shu asosda, "Yashil obligatsiyalar", davlat-xususiy sheriklik (JXS) loyihalari, va ekologik soliqlarni joriy qilishni tartibga soluvchi maxsus qonun hujjati ishlab chiqish lozim.

Bundan tashqari, maqolada BRM loyihalariga ajratilgan mablag'lar yetarli emasligitahlil qilingan. Innovatsion moliya manbalari (masalan, xalqaro grantlar va yashil obligatsiyalar) jalb qilinishi resurslar bazasini kengaytiradi.

BRM maqsadlariga erishishda davlat organlari, nodavlat tashkilotlar va fuqarolik jamiyati o'rtaсидagi hamkorlikni tartibga soluvchi, yo'naltiruvchi xarakterga ega "Barqaror rivojlanish kodeksi" (tavfsiyaviy kodeksi)ni ishlab chiqish. Maqolada institutsional mexanizmlarning mavjudligi, ammo ularning samaradorligini oshirish zarurligi ta'kidlangan. Kodeks manfaatdor tomonlarning ishtirokini tizimlashtirib, ijro etishni yaxshilaydi. Ushbu takliflar qonunchilikni BRMga muvofiqlashtirish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va ijro etishni monitoring qilish orqali O'zbekistonning 2030-yilgacha bo'lgan barqaror rivojlanish dasturiga yordam beradi.

### Adabiyotlar ro'yxati

#### Xalqaro hujjatlar

- |   |                 |
|---|-----------------|
| 1. Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development,<br>2015 year. | Retrieved from: |
|---|-----------------|

[https://www.un.org/en/development/desa/population/migration/generalassembly/docs/globalcompact/A\\_RES\\_70\\_1\\_E.pdf](https://www.un.org/en/development/desa/population/migration/generalassembly/docs/globalcompact/A_RES_70_1_E.pdf)

### Qonunlar

2. O‘zbekiston Respublikasining 02.10.2018 yildagi «Parij bitimini (Parij, 2015-yil 12-dekabr) ratifikatsiya qilish to‘g‘risida»gi O‘RQ-491-son qonuni. Retrieved from: <https://lex.uz/docs/-3924460>

### O‘zbekiston Respublikasining huquqiy-me’yoriy hujjatlari

#### Prezident farmonlari

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-son «2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni. Retrieved from: <https://lex.uz/docs/-5841063>

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 9.04.2019 yildagi «O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PF-5712-son Farmoni.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi «O‘zbekiston — 2030» strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-158-son Farmoni. Retrieved from: <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.06.2023 yildagi “Buxoro viloyatining Qorovulbozor tumanida quvvati 500 MVt bo‘lgan quyosh fotoelektr stansiyasini qurish” investitsiya loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-190-son qarori. Retrieved from: <https://lex.uz/ru/docs/-6497389>

#### Vazirlar Mahkamasi qarorlari

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 21.02.2022 yildagi «2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 83-son qarori. Retrieved from: <https://lex.uz/docs/-5870397>

8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 30.10.2020 yildagi «Navoiy viloyatida quvvati 100 MVt bo‘lgan fotoelektrik stansiyani qurish» investitsiya loyihasini amalga oshirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 667-son qarori. Retrieved from: <https://lex.uz/uz/docs/-5073453>

### Oliy Majlis qarorlari

9. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 06.11.2023 yildagi «Barqaror rivojlanish maqsadlari oyligini o‘tkazish to‘g‘risida»gi 3671-IV-son qo‘shma qarori. Retrieved from: <https://www.lex.uz/uz/docs/-6666929>

### Ilmiy adabiyotlar

10. Тангиров, Н. А. (2022). «Барқарор ривожланиш» ғоясининг назарий-амалий аҳамияти. Academic Research in Educational Sciences, 3(6), 1082-1092. ISSN: 2181-1385

11. Мўминов, А. Г. (2023). Ўзбекистон барқарор ривожланиш йўлида. Фалсафа ва ҳуқуқ, 2023(2), 14-19.

12. Усмонов, М. Ш. (2023). Барқарор ривожланиш мақсадлари ва инсон ҳуқуқларини таъминлаш. Фалсафа ва ҳуқуқ, 2023(3), 4-6.

13. Mirziyoyev Sh.M. «Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston». — Toshkent.: «O‘zbekiston» NMIU, 2024. — 344 b.

### Statistik ma’lumotlar va hisobotlar

14. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. (2022). 2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjeti ijrosi to‘g‘risida hisobot. Retrieved from: <https://www.imv.uz/static/choraklik-2022>

15. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston — 2030» strategiyasini «Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida 2024-yil 21-fevraldagи PF-37-son Farmoni bajarilishi yuzasidan TAHLILYI MA’LUMOT. Retrieved from: <https://uzedu.uz/uploads/downloads/TbkVqFRy9q6jh3sK9j9VFDljhkouo-M7.pdf>

### Xalqaro tashkilotlar hisobotlari

16. «O‘zbekiston iqtisodiy sharhi». Juhon banki. Retrieved from: <https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan/overview>

### Strategiyalar va dasturlar

17. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish vazirligi, 2021. «2030-yilgacha Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi». Retrieved from: <https://lex.uz/docs/-4539502>